

PISA BAHOLASH O`QUV DATURINING AFZALLIKLARI

Berdiquulova Mohinur Eshtemir qizi

Qarshi Davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lif va sport tarbiyaviy ishlari sirtqi bo'lim 3-kurs

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pisa baholash dasturi o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Pisa, o'quvchilar, o'qituvchi, mamlakat, o'quv dastur, matematika, savodxonlik, baholash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro taqdijotlarni amalgalash oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Bunday markazning tashkil etilishi o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarni baholash va nazorat qilish imkonini beradi. Bundan ko'rindaniki, mamlakatimizda ta'lim sifatini baholashning yangicha tizimi shakllanmoqda. Hozirda zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari rivojlanТИrilmоqda.

Respublika xalq ta'limi tizimi ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etdi.

Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi - PISA (ing. Programme for International Student Assessment) turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur.

PISA testlari maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarini tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Pisa baholash dasturi o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bu hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi, targ'ib qilmaydi va umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi.

PISAning asosiy vazifasi a'zo mamlakatlarni ta'lismi siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash, qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Tadqiqotning har uch yilda o'tkazilishi esa mamlakatlarga siyosiy qarorlar va tegishli dasturlarning ta'sirini hisobga olish uchun ma'lumot va tahlillarni ichiga olgan holda o'z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, mamlakatlar bu davr davomida o'z ta'lismi tizimida kelajakda erishish ko'zda tutilgan maqsadlarni aniqlab olishiga imkon beradi.

Respublikamizning xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash Ta'lismi inspeksiyasi huzuridagi "Ta'lismi sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi" xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanmada PIRLS tadqiqoti, uning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat-sinov materiallarining ishlab chiqilishi haqidagi umumiy ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, PIRLS tadqiqotining topshiriqlaridan, ya'ni matnlar va savollaridan bir nechta namunalar hamda ularning baholash mezonlari keltirilgan.

Shuningdek 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyoragarlik ko'rish uchun PIRLSda berilgan matnlarning har biriga alohida mashq daftarlari ishlab chiqilgan. Mazkur ish daftari o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish, o'qiganlarini tahlil qilish, talqin qilish hamda to'g'ri xulosa chiqara olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'shimcha didaktik material hisoblanadi.

Til ta'limali o'quvchining kreativ fikrlashini ta'minlash orqali yuqori saviyadagi nutqiy savodxonlik bilan bir qatorda tabiiy va aniq fanlarni oson va qulay o'zlashtirilishiga erishamiz. PISA tadqiqotlari doirasining ham o'ziga xos xususiyatlaridan biri ham 15 yoshli o'quvchilarining kreativ fikrlashini baholashidir. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "Tasavvur - bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta'lismi siyosati va pedagogikasida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Xalqaro PISA baholash dasturi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlardagi kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi mutasaddilarga dalillarga asoslangan to'xtamga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo'lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko'nikmani ta'lismi orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasidagi bahslarga sabab bo'ladi. PISA xalqaro baholash dasturidagi ushbu faoliyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qo'llab quvvatlashga qaratilgan boshqa bir loyihasi bilan bog'liqdir.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son “2019-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” Farmoni.
2. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida “Uzluksiz ta'lif”. – 2005. - №1. - B.14.
- 3.A.A.Xaliquov “PIRLS dasturining mazmun-mohiyati”- pedagogika fanlar doktori.
4. R. A. Mavlonova va bq “Boshlang`ich ta`limda pedagogika, innivasiya, integrasiya”, Toshkent ,”G.G`ulom” nashriyoti 2013-yil.